

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “HAYOT ABADIY” HIKOYASIDA HAYOT FALSAFASI

Soatova Aziza Sadriddin qizi

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

azizasoatova011@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi hayot falsafasi “Hayot abadiy” hikoyasi misolida tahlil qilingan. Maqolada yozuvchining realizmga asoslangan tasvir usuli, qahramon ruhiyatini ochib berish mahorati hamda inson hayoti va uning ma’nosi haqidagi falsafiy qarashlari yoritilgan. Asar bosh qahramoni Nodir Ro‘ziqulov obrazi orqali insonning ruhiy tushkunligi, hayot sinovlari va ularga munosabati tahlil etiladi. Shuningdek, hikoyadagi tush motivi hamda tabiat tasvirlarining badiiy va falsafiy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada Shukur Xolmirzayev ijodining o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilib, yozuvchining inson ruhiyatini tabiiy va ta’sirchan ifodalashdagi mahorati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shukur Xolmirzayev, “Hayot abadiy”, hayot falsafasi, realizm, qahramon ruhiyati, tush motivi, tabiat tasviri, inson taqdiri, psixologik tahlil, adabiy tahlil.

Annotation: This article analyzes the philosophy of life in Shukur Xolmirzayev’s stories based on the example of the short story “Eternal Life”. It examines the writer’s realistic style of depiction, his mastery in revealing the psychological state of characters, and his philosophical views on the meaning of human life. Through the character of Nodir Ro‘ziqulov, the article explores themes such as psychological distress, life challenges, and human response to them. It also discusses the artistic and philosophical role of the dream motif and nature descriptions in the story. Overall, the article highlights the distinctive features of Shukur Xolmirzayev’s creative style and his ability to vividly portray human psychology.

Key words: Shukur Xolmirzayev, “Eternal Life”, philosophy of life, realism, character psychology, dream motif, nature description, human destiny, psychological analysis, literary analysis.

Аннотация: В данной статье анализируется философия жизни в рассказах Шукур Холмирзаева на примере произведения «Вечная жизнь». Рассматриваются реалистический стиль писателя, его мастерство в раскрытии психологии персонажей, а также философские взгляды на смысл человеческой жизни. Через образ Нодира Рузикулова анализируются такие темы, как психологическое состояние героя, жизненные испытания и отношение человека к ним. Также раскрывается художественная и философская роль мотива сна и описаний природы в рассказе. В целом, статья подчеркивает особенности творческого стиля Шукур Холмирзаева и его умение глубоко и реалистично изображать человеческую психологию.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, «Вечная жизнь», философия жизни, реализм, психология персонажа, мотив сна, описание природы, человеческая судьба, психологический анализ, литературный анализ.

Hayot... Beshtagina harfdan iborat ushbu so‘z zamirida chuqur falsafa mavjud. Afsuski, bu hayotda umr kechirgan, uning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan barcha inson ham undagi asl mohiyatni tushunib yetavermaydi. Bunday insonlar esa hayotdagi to‘siq-u qiyinchilikni o‘zi uchun ulkan fojea sifatida qabul qilib, ularga qarshi matonat bilan kurashish o‘rniga, “Chinor” romanidagi Ochil bobo ta’biri bilan aytganda, “Mo‘rt bir barg misoli uchadi-yu ketadi”. Zabardast surxon adibi Shukur Xolmirzayevni esa hayotning o‘sha chuqur falsafasini o‘zining hikoyalarida gavdalandira olgan, qahramonlari orqali insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olgan ijodkor desak, mubolag’a bo‘lmaydi. Uning hech kimnikiga o‘xshamaydigan, o‘z xos tasvirlash uslubi esa hikoyalarining yanada ta’sirli bo‘lishida, insonlar qalbini zabt etishida muhim ahamiyat kasb etgan. Umarali Normatov o‘zining “Nasrimiz an’analari” asarida Shukur Xolmirzayev ijodiga quyidagicha ta’rif beradi: “«Hayot abadiy»ni varaqlaganda tug‘iladigan ilk taassurot shuki, undagi hikoyalar

qandaydir o'ziga xos tarovatga ega, garchi ular o'zbek hikoyachiligi milliy an'analari bilan mustahkam aloqador bo'lmasa-da, nimasi bilandir A. Qodiriy, G'. G'ulom, A. Qahhor, Said Ahmad, Mirmuhsin, H. G'ulom, S. Zunnunova singari taniqli hikoyanavislarimiz, U. Nazarov, U. Hoshimov, U. Umarbekov kabi tengdoshlari asarlaridan baralla ajralib turadi. Aytaylik, uslub va ifodada Said Ahmadni G'.G'ulom va A. Qahhor bilan, S. Zunnunovani S. Ahmad bilan, U. Hoshimovni U. Umarbekov bilan yaqinlashtiradigan talay xususiyatlar mavjud; Sh. Xolmirzayev hikoyalari esa hech kimnikiga o'xshamaydi".¹

Shukur Xolmirzayev ijodining o'ziga xos jihati shundaki, u oddiy insonlar taqdirini ortiqcha dabdabalarsiz, qanday bo'lsa shunday tasvirlaydi, hikoyalaridagi realizm unsurlari asarni o'quvchi yuragiga yanada yaqinlashtiradi, har bir o'quvchi ularda o'z taqdirni ko'radi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari real hayot voqealarini ko'zgu misoli o'zida aks ettiradi, shu sababli ham ular dard, qalbda og'riq bilan mutolaa qilinadi. Masalan, uning birgina "Hayot abadiy" hikoyasini olaylik. Asar bosh agronom Nodir Ro'ziqulovning majlisdan qattiq tanqid yeb chiqishi-yu qaynonasining "hemirisi yo'q ekspeditori ham yangi uchastka qurib olyapti" degan gapini eshitishdan boshlanadi. Erta tongdan ishidagi muammolar, qaynonasining achchiq gaplari, buning ustiga, xotining qizchasini ko'tarib uyidan ketib qolishi, it tufayli qo'shnisi bilan bo'lgan tortishuvlar Nodirning hayoti tinch-osuda emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu muammolarning ustma-ust kelishi asar bosh qahramoning tinkasini quritadi. Yozuvchi esa Nodirning bu holatini ortiqcha tasvir vositalarisiz o'quvchi qalbiga yetib boradigan darajada mahorat bilan tasvirlagan:

"Nodir huvillab yotgan uyga kirib, qizchasining to'shab qo'yilgan ko'rpachasiga ko'zi tushdi, borib uning ustiga cho'nqaygan edi, bolasining ona sutini eslatuvchi isi dimog'iga urildi-da, ko'ngli buzilib ketdi. Chopib tashqariga chiqdi, yuziga sovuq shamol tegib, to'xtab qoldi. Bir nafas ko'ksini ochib, ayvon panjarasiga o'tirdi va to'satdan shu

¹ U.Normatov "Nasrimiz an'analari". Toshkent- 1978, B-198

qadar bo'shashib ketdiki, yerga guppa yiqilib, o'lib qoladigandek bo'ldi. Haqiqatan ham guppa yiqildi...".²

Hikoyani o'qish jarayonida Nodirning tongdan buyon boshidan kechirgan voqealari o'quvchi uchun u qadar fojeali yoki yirik tuyulmasligi mumkin, ammo bu muammolar uning oldingi dardlariga qo'shilib, Nodirning ahvolini yanada og'irlashtiradi. Uning holati xuddi qulay deb turgan eski ko'priikka o'xshaydi, birgina kichik toshning tushishi ham ko'prikning qulashiga sabab bo'lganidek, tonggdagi voqealar ham Nodir ruhiyatiga shunday ta'sir qiladi. Hikoyaning asosiy voqealari asar bosh qahramoning tushidan iborat. U ayvon panjarasiga boshini qo'ygan holda uxlab qoladi va tush ko'radi. Tushida o'zining qanday holda o'lgani va o'limidan keying voqealar tasvirlanadi.

Inson ruhiyati uchun eng og'ir tasavvurlardan biri o'z o'limini ko'z oldiga keltirish bo'lsa kerak. Albatta, barcha bu yorug' dunyodan izzat-ehtirom, shon-sharaf bilan ko'z yumishni orzu qiladi. Nodirning tushida tasvirlangan o'lim manzarasi esa buning aksi edi : *"U tirishib, o'lib yotibdi. Oyoq qo'lini yozib, ko'zlarini yumib, iyagini ko'tarib bog'lab qo'yadigan bironta odam bo'lmaganidan tirishib, kulala bo'lib qoladi-da. Esiz, yomon o'lim topdi-da, it qavmida ketdi, deyishadimi buni? Vasiyat ham qilmadi, yosh ketdi. Qizchasini ham ko'rib, diydoriga to'yolmadi, xotinidan ham rozilik ololmadi"*. Bundan keyingi voqealarda esa Nodirning janozasi sahnasi tasvirlanadi. Janozada insonlar ko'z yosh to'kadi. Ammo bulardan qay biri marhum uchun chin dildan yig'layapti, qay biri shunchaki uvvos solyapti bilish qiyin. Pok qalbli inson uchun ko'z yosh to'kadiganlar, albatta, topiladi. Hikoya bosh qahramoni Nodir esa halol, o'z ishiga sodiq, o'zi qiyin ahvolda bo'lsa-da, boshqalarga yordam berishdan qochmaydigan yaxshi inson edi. Qish kunlarining birida bir kampir uyi uchun yog'och so'rab yugurgan paytda hech kim uning dardini eshitmaydi, ammo Nodir o'zining yangi uchastkasi uchun ishlatmoqchi bo'lgan yog'ochlarini unga berib yuboradi. Nodirning yagona kamchiligi ham shunda edi, ya'ni oilasiga beparvo edi. Uning shu beparvoligi tufayli ham oilasida janjal, kelishmovchiliklar

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-hayot-abadiy-hikoya>

tez-tez paydo bo'lar, xarakterining mo'min, qobilligi, indamasligi esa boshlig'idan ko'p gap eshitishiga sabab bo'lar edi.

Nodir Ro'ziqulov tushi davomida o'zining nafaqat xatolarini, ya'ni hayot muammolari o'zini o'ldirishga arzimasligini, balki haqiqiy hayot falsafasini ham anglab yetadi. Bu hayot falsafasi shundaki, inson o'lsa-da, hayot davom etaveradi, u to'xtab qolmaydi. Balki, bir insonning o'limi hayot uchun ahamiyatsiz. Nodirning o'limidan keyin ham shunday bo'ldi. Janozasida dod-voy solib, ko'z yosh to'kkanlar uni baribir unutishdi. Ota-onasining g'am bukkani qaddi ham tiklandi, xotini ham turmushga chiqdi, endi qizi boshqa birovni ota deyishni ham o'rganadi. Ishxonasida esa boshqa kishi uning o'rniga agronom ham bo'ldi. Nodir-chi? U allaqachon unutildi. Asarda quyidagicha ta'rif keltiriladi: *"Inson hayoti shu ekan-da. Tug'ildi, o'sdi, o'qidi, ishladi, odamlar bilan urishdi, yarashdi. Ro'zg'orni o'yladi, tashvish tortdi. Sevdi...nihoyat, o'ldi. Oilada bir necha kun yig'i-sig'i, rasm-taomillar. Keyin? Uni eslab yurish..."*.³ Hikoya inson hayotida uchraydigan qiyinchilik va muammolar muqarrarligini ko'rsatadi. Muhimi, insonning ularga qanday munosabatda bo'lishidir. Hikoya davomida Nodir ham shu haqiqatni anglab yetadi. Asar so'ngida qahramon ruhiy tushkunlikdan chiqib, hayotga boshqacha nigoh bilan qaray boshlaydi. Endi u ayvon panjarasiga beparvo suyanib o'tirgan inson emas, balki o'z xatolarini tahlil qila oladigan va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydigan shaxs sifatida gavdalanadi. Shu sababli u xotini va qizchasini olib kelish uchun qaynonasinikiga yo'l oladi. Yozuvchi ushbu hikoya orqali insonni qiyinchiliklar oldida taslim bo'lmaslikka, aksincha, hayot uchun kurashishga undaydi.

Shukur Xolmirzayev hikoyada tabiat tasvirlaridan ham katta mahorat bilan foydalanadi. Asardagi kuz yomg'iri, sovuq shamol, tun sukunati, yulduzli osmon kabi tabiat manzaralari voqealarning oddiy fonigina bo'lib qolmay, qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Nodirning tushkun holati tasvirlangan o'rinlarda tabiat manzaralari uning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashib ketadi. Yozuvchi qahramonning

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-hayot-abadiy-hikoya>

ruhiy bo'shashuvi va yolg'izligini tabiat orqali yanada ta'sirchan ifodalaydi. Asarda quyidagi tasvir bunga yaqqol misol bo'la oladi: *"Tongga yaqin shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Bu ilk kuz yomg'iri edi. Qovjiroq ko'katlaru daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi. So'ng yomg'ir tinib, havo ochildi, unda oppoq yulduzlar yarqirab yona boshladi"*.⁴ Ushbu manzara asardagi sokin, iztirobli va falsafiy ruhni yanada kuchaytiradi. Tabiatdagi o'zgarishlar qahramon qalbidagi ichki kechinmalar bilan parallel holda tasvirlanadi. Bundan tashqari, yozuvchi tabiat orqali hayotning davomiyligini ham ko'rsatadi. Nodir o'zini o'lim holatida tasavvur qilayotgan bir paytda ham yomg'ir yog'adi, shamol esadi, yulduzlar charaqlaydi. Ya'ni tabiat va hayot o'z oqimida davom etaveradi. Shu jihatdan tabiat tasvirlari hikoyaning asosiy falsafiy g'oyasini ochishda muhim vazifasini bajaradi.

Shukur Xolmirzayev nafaqat o'zbek hikoyachiligini yangi badiiy izlanishlar bilan boyitgan iste'dodli adib, balki butun umrini adabiyotga bag'ishlagan fidoyi ijodkor hamdir. Uning asarlarida inson va hayot masalalari sun'iylikdan holi, samimiy hamda hayotiy tasvirlarda aks etadi. Shu bois yozuvchi yaratgan obrazlar va badiiy haqiqat kitobxon qalbiga tez yetib boradi, uni mushohadaga chorlaydi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: "So'z odamlari orasida men faqat Shukur Xolmirzayevnigina adabiyot fidoyisi deb ayta olaman. Shukur aka o'zidan ko'ra adabiyotni ko'proq sevmog'ning uddasidan chiqdi. U qulayliklardan voz kechib, adabiyotga xizmat qilishga o'zida kuch topa oldi. Yozuvchi adabiyotni o'ziga xizmat qildirmadi, aksincha, bir umr unga xizmat qildi".⁵ Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayevning ijodi ham, hayot yo'li ham ushbu fikrning yaqqol isbotidir. Uning asarlari bugun ham o'z qimmatini yo'qotmagan

⁴ Shukur Xolmirzayev. *Hayot abadiy* (hikoya). — URL: [Ziyo.uz elektron kutubxonasi](http://Ziyo.uz) (murojaat qilingan sana: 30.05.2026).

⁵ Safarov O. Tarixiy haqiqatning xolis badiiy talqini. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/otabek-safarov-tarixiy-haqiqatning-xolis-badiiy-talqini.html> (Murojaat sanasi: 30.05.2026).

holda kitobxonlarni hayot haqida chuqurroq o'ylashga, insoniylik va ma'naviy qadriyatlarni qadrlashga undab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent, 2018.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent, 2004.
4. Normatov U. *Nasrimiz an'analari*. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
5. Safarov O. Tarixiy haqiqatning xolis badiiy talqini [Elektron manba] / Xurshid Davron kutubxonasi. — 2015. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/otabek-safarov-tarixiy-haqiqatning-xolis-badiiy-talqini.html>
6. Shukur Xolmirzayev. *Hayot abadiy* (hikoya). — URL: [Ziyo.uz elektron kutubxonasi](https://ziyo.uz/elektron-kutubxonasi)